

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Qarshi filiali direktori:

Turg'unov Adilbek Muxtorovich

Qabul vaqti: Har kuni (9:00-17:00)

Telefon: (8 375) 228-02-32

E-mail: odilt@tuitkf.uz

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 2 iyundagi "Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-91-sonli qaroriga binoan tashkil etilgan.

Filialda 2 ta, "Kompyuter injiniring" hamda "Telekommunikatsiya texnologiyalari va kasbiy ta'lim" fakultetlari, shuningdek, 5 ta'lim yo'nalishi mavjud. "Axborot xavfsizligi", "Kompyuter injiniringi", "Dasturiy injiniring", "Telekommunikatsiya texnologiyalari" hamda "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi".

Bugungi kunda filialda 78 nafar professor-o'qituvchi faoliyat yuritib, shundan, 1 nafarini professor, 2 nafarini fan doktori, 16 nafarini fan nomzodi hamda 4 nafarini dotsent tashkil etadi.

Filialda 1233 nafar talaba-yoshlar tahsil olib, shundan, 1112 nafarini bakalavr, 19 nafarini magistratura hamda 102 nafarini sirtqi ta'lim shaklida tahsil olayotgan talaba-yoshlar tashkil etadi.

O'tgan davr mobaynida 12 nafar professor-o'qituvchi Janubiy Koreyaning nufuzli oliygohlarida malaka oshirib qaytishgan.

Filialda "Dasturchilarni tayyorlash markazi", "Elektron hukumat" markazi hamda Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi doirasidagi TechReh (TekRex) xalqaro loyihasining "Tibbiyotda texnik reabilitatsiya" ilmiy laboratoriyasi faoliyat yuritmoqda.

Shuningdek, filialda kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va samaradorligini oshirish, oliy ta'lim tizimi o'quv jarayoniga ilg'or xalqaro tajribani keng joriy etish, universitetni jahonning nufuzli universitetlari qatoriga kirishini ta'minlash maqsadida 2018/2019 o'quv yilidan boshlab axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasida kadrlar tayyorlash bo'yicha o'qitishning kredit tizimi joriy etilgan.

Filialning Novosibirsk davlat texnika universiteti, Moskva texnika aloqa va informatika universiteti, Rossiya Akademiyasi Sibir bo'limi hisoblash texnologiyasi instituti, Belorussiya davlat informatika va radio elektronika universiteti hamda Tojikiston milliy universiteti bilan ikki tomonlama hamkorlik aloqalari keng yo'lga qo'yilgan.

Qarshi filiali nizomi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali murojaat ma'lumotlari

- Manzil: Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, Beshkent yo'li 3 km.
- Tel./faks: (8 375) 228-02-32
- e-mail: tuitkf@tuit.uz
- Rasmiy veb sahifasi: <http://tuitkf.uz/>